



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 3, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 3, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2020

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

"Ўтмишга назар" илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала "Взгляд в прошлое"
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Кебадзе Мадонна
Доктор исторических наук, Телавский государственный университет, Грузия

Эргашева Юлдуз Алимовна
*Тарих фанлари доктори, профессор
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт институти*

Бурдиашвили Майя
Доктор исторических наук, Телавский государственный университет, Грузия

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телавский государственный университет, Грузия

Кожакеева Ляззат Темировна
*тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети,
Қозоғистон Республикаси*

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат техника университети

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
*тарих фанлари доктори, профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети*

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон Миллий Университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор в.б., Ўзбекистон Миллий университети

Зияева Доно Хамидовна
*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти*

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти*

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Агзамова Гулчехра Азизовна
*тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти*

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори, Тошкент кимё - технология институти

Джоробекова Айнур Эшимбековна
*тарих фанлари номзоди, профессор, Ташқи ишлар вазирлиги қошидаги Дипломатия академияси,
Қозоғистон Республикаси*

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети доцент

Толипов Файзулла Саидович
Тошкент давлат техника университети доцент, тарих фанлари номзоди

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1.Гулчехра Азизовна Агзамова XVI-XIX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН УРБАНИЗАЦИОН ЖАРАЁНЛАР ТАРИХИДАН.....	4
2.Илёсхон Мухиддинович Бурхонов «ЗАКОТ» - ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ.....	11
3.Зумрад Касимова УЙЎУР АДАБИЁТИ ТАРИХИДА АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	16
4.Муродулла Мирзаев ЎЗБЕКИСТОН АСОСИЙ СИЁСИЙ ИНСТИТУТЛАРИ ФАОЛИЯТИ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИНИ ЭРКИНЛАШТИРИШ.....	21
5.Сайёра Турғуновна Мирсоатова, Раънохон Ўринбой қизи Аҳмадалиева ЎЗБЕКИСТОНДА МЕЗОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	30
6.Акмалжон Марозиқов ФАРҶОНА ВИЛОЯТИДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ –ҲУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	37
7.Shoirra Sayfiyevna Ochilova O'RTA ASR UYG'ONISH DAVRI SHARQ ALLOMALARINING INSONPARVARLIK - GUMANISTIK G'OYALARI.....	43
8.Нилуфар Ахматовна Жумаева, Феруза Холмаматовна Утаева ЗИРОАТЧИЛИК ҲОМИЙСИ - БОБОДЕҲҚОН БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР (Бухоро воҳаси мисолида).....	49
9.Dilrabo Shomurodovna Murodova BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI MANBALARINING O'ZBEKISTON TARIXINI YORITISHDAGI ANAMIYATI.....	56
10.Жасур Жамшитжонович Якобжанов МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ АДАБИЁТЛАРИДА ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ДАВЛАТЧИЛИГИ МАСАЛАСИ.....	61
11.Гулсина Исмойиловна Ҳошимова ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ ТАРИХИЙ АСОСЛАРИ.....	68
12.Kurbanov Golib Negmatovich SO'NGGI O'RTA ASRLAR BUXORO AN'ANALARI VA MAROSIMI.....	74

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Dilrabo Shomurodovna Murodova,
Buxoro davlat universiteti
Tarix va madaniy meros fakulteti
Buxoro tarixi kafedrasida o'qituvchisi

BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI MANBALARINING O'ZBEKISTON TARIXINI YORITISHDAGI AHAMIYATI

For citation: Dilrabo Shomurodovna Murodova. THE IMPORTANCE OF HISTORICAL SOURCES OF THE BUKHARA REGIONAL STATE ARCHIVE IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2020, vol. 5, issue 3, pp.56-60



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-5-9>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan manbalarining O'zbekiston tarixini yoritishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyat davlat arxivi, hujjatlar, tarixiy meros, arxiv ishi, arxiv byurolari, tuman va shahar arxivlari, fond, foto - fond, saqlov birliklari, shaxsiy tarkib hujjatlari.

Дилрабо Шомуродовна Муродова,

Преподаватель кафедры История Бухары
Факультета Истории и материальной культуры
Бухарского государственного университета

ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ БУХАРСКОГО ОБЛАСТНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО АРХИВА В ОСВЕЩЕНИИ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В рамках данной статьи обосновывается значение, хранящихся в фондах Бухарского областного государственного архива исторических источников в деле освещения истории Узбекистана.

Ключевые слова: Бухарский областной государственный архив, документы, историческое наследие, архивное дело, архивное бюро, городские и районные архивы, фонд, фото – фонд, единицы хранения, документы личного состава.

Dilrabo Shomurodovna Murodova,

Lecturer at the Department of the History of Bukhara
Faculty of History and Material Culture
Bukhara State University

THE IMPORTANCE OF HISTORICAL SOURCES OF THE BUKHARA REGIONAL STATE ARCHIVE IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

The present article deals with the importance of the historical sources stored in the funds of the Bukhara Regional State Archive in the studying of the history of Uzbekistan.

Index Terms: Bukhara Regional State Archive, documents, historical heritage, archiving, archival bureaus, city and district archives, fund, photo-fund, storage units, personnel documents.

1. Dolzarbligi:

Mustaqillik yurtimizga, xalqimizga o'zligimizni anglash tuyg'usini berdi, iymon va e'tiqodimizni qaytatib berdi. Buyuk tariximizni xolisona o'rganib, uni birlamchi manbalar asosida kelajak avlodga yetkazib berish imkoniyati tug'ildi. Barchamizga ma'lumki, tarixiy madaniy meros, olis o'tmishni chuqur o'rganmasdan turib, istiqbolni belgilab bo'lmaydi. Zero, kelajakka intilish uchun o'tmishni o'rganish, tarixni o'zlashtirish darkor. Istiqbolga erishganimizdan so'ng, ota-bobolarimiz asrlar davomida yaratgan ma'naviy boyliklarni e'zozlash, avaylab asrash, o'rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Vatanimiz tarixini xolisona o'rganish, tarixiy manbalar asosida tahlil qilish va ilmiy izlanishlar olib borish biz yosh avlodning xalqimiz va ona vatanimiz oldidagi muqaddas burchimizdir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek: "Buyuk tarixda hech narsa izziz qolmaydi. U xalqning qonida, xotirasida saqlanadi. Amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun u qudratlidir"[1,205].

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish, hozirgi milliy ma'naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat – e'tiborni, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmar qiladi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishida bildirgan fikrlarini keltirishni joiz topdim. "Hamma o'z tarixini uiug'laydi. Lekin, bizning mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak[2].

Ana shunday ulug' insonlar va buyuk avliyolarga beshik bo'lgan Buxoro Sharif asrlar davomida butun insoniyatga o'zining bebaho tarixi, madaniyati bilan beminnat xizmat qilib keldi. Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor bo'lgan muqaddas joylaridan biridir. Buxoro ezgulik shahri-qadimgi ajdodlarimiz uni shunday atashgan, jahon madaniyatining yorqin va qadimiy o'chog'i bo'lgan bu shaharni biz, avlodlar ham shunday ataymiz. Bu yerda asrlar davomida noyob madaniyat vujudga keldi, ulug' zakovat sohiblari tavallud topib ijod qildilar, tarixda o'chmas iz qoldirdilar.

Shu o'rinda vatanimiz o'tmishini tarixiy manbalar asosida xolisona yoritishga xizmat qilayotgan moddiy va ma'naviy meros durdonalari qatorida Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar va ularning ilmiy qimmatini yoritishni joiz deb bildim.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ma'lumki, har bir davlat tarixini yoritishda arxiv hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tadqiqotlarning manbaviy asosini shakllantirish va milliy-madaniy boylik hisoblangan yozma va tasviriy hujjatlar bilan muntazam ravishda jamlab borish va ularni but saqlanishini ta'minlashda davlat arxivlarining o'rni muhimdir.

Xo'sh, bu hududda tariximiz uchun qimmatli bo'lgan hujjatlar, qadimiy qo'lyozmalar saqlanadigan muassasa – arxivlar qachondan boshlab tashkil etilgan va qanday faoliyat yuritgan? Qadim-qadimdan hukmdorlar saroyida kutubxonalar va devonxonalar mavjud bo'lsa-da, ular zamonaviy arxiv vazifasini bajarmas edi. XIX asr oxirida tojdorlik qilgan amirlar hujjatlar saqlanadigan devonxonani o'z qarorgohlarida olib yurganlar. Masalan, amir Muzaffar ularni

Shirbudunda saqlagan bo'lsa, uning o'g'li Abdulahad arxiv hujjatlarini o'zi bilan Karmanadagi qarorgohiga olib ketgan edi. Amir Olimxon davrida esa hujjatlar Buxoro shahriga olib kelingan. Amir devonxonasiga parvonachi javobgar bo'lgan. Saroy kutubxonasidan esa faqat amirning ruxsati bilan foydalanilgan. Atoqli tarixchi M.A.Abduraimovning fikriga ko'ra, Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari Buxoro bosqini vaqtida qizil askarlar tomonidan olib ketilgan va uning keyingi taqdiri noma'lumligicha qolib ketgan[3,17].

Xalq Nozirlar Kengashiga yuborilgan hujjatlar Tashqi ishlar nozirligi binosining yer to'lasida O'ZSSR tuzilgunga qadar saqlangan. 1924 yilgi milliy – xududiy chegaralanish paytida Musa Saidjonov raisligida hujjatlarning ma'lum qismiga dalolatnoma tuzulib, Buxoro davlat kutubxonasiga topshirilgan. Bugungi kunga kelib O'zRMDA ning I-126 fondida Buxoro amirligi devonxonasiga tegishli 5000ga yaqin hujjat saqlanib, ularning hammasi qo'shbegi nomiga yuborilganligi uchun qo'shbegi arxivi hujjatlari tarkibiga kiritilgan[3,18]. Qushbegi arxivi Buxoro Arkida o'tgan asrning 30 – yillarida topilgan bo'lib, uning Toshkentda faoliyat yuritgan Markaziy Davlat Tarix arxiviga topshirilishi, ya'ni markaz Toshkentga olib kelinishi o'sha davrdagi murakkab iqtisodiy – siyosiy vaziyatda amalga oshirilgan [4].

3. Tadqiqot natijalari:

Buxoroda arxiv tashkilotining tashkil etilishi hududda sho'ro tuzumining o'rnatilishi bilan bog'liq hisoblanadi. 1925 yil oxirida Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Farg'onada viloyat arxiv byurolari va 1926 yillar boshida Xorazm, Qashqadaryo va Surxandaryoda viloyat arxiv byurosi tashkil qilindi. 1927 yil okrug maqomi berilishi munosabati bilan viloyat arxiv byurolari okrug nomi bilan qayta nomlandi.

O'zbekistonSSR Markaziy Ijroya Komitetining 1935 yil 21 dekabrda qabul qilgan qaroriga ko'ra Samarqand, Buxoro, Farg'onadan tashqari hamma shahar va tumanlarda shahar va tuman arxivlari tashkil qilindi. O'zbekiston SSR Markaziy Arxiv Boshqarmasi (MAB)dan O'zbekiston SSR Markaziy Davlat Arxivi o'zining Samarqand, Buxoro, Farg'ona bo'limlari bilan ajralib chiqdi.

Buxoro viloyat Davlat arxivi 1925 yilda Zarafshon viloyat arxiv byurosi sifatida tashkil topgan bo'lib, 1927 yilda Buxoro okrug arxiv byurosiga aylantirilgan. Buxoroda dastlab arxiv ishini yo'lga qo'yish uchun asosiy hujjatlar bazasi bo'lib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Zarafshon viloyati, Buxoro okrugi va Buxoro viloyati ijroya qo'mitalarining hujjatlari xizmat qilgan.

XX asrning 20-yillarida Buxoroda arxiv ishi masalalarida talaygina muammolarning bo'lganligini mavzuga oid xujjatlarda ko'rish mumkin. Bu kabi muammolarning bo'lishiga qaramay Buxoro arxivchilari ishga nisbatan munosabatni hech ham susaytirmaganlar. Faqatgina muassasalar tomonidan topshiriladigan hujjatlar bilan chegaralanmay, boshqa turdagi tarixiy ahamiyatga ega hujjatlarni arxivga jalb qilishga harakat qilganlar. Bunga arxiv rahbari Haydarovning MABga yozgan 1928 yilgi xatini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda shunday deyiladi: “Arxiv Byuro Okrug ijroqo'mi tashabbusi bilan barcha fotografiya, tipografiya namunalarini Buxkomstarisga, bosma nashrlar va fotosuratlarini Ozod Buxoro gazetasi tahririyatiga ro'yxatga olishni taklif qilgandi. 1938 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyatining tashkil qilinishi hududdagi arxivishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Arxiv ishida sodir bo'lgan sezilarli o'zgarishlar birinchilardan bo'lib kadrlar sohasida bo'ldi. Ilgarilari viloyat arxivida ikkitadan ortiq xodim ishlamagan bo'lsa, endilikda ularning soni sekin-astalik bilan ortib, ularga to'lanadigan maosh ham ko'tarila boshlagan. Bu o'zgarishlar albatta, arxiv ishi va hujjatlar saqlovini yaxshilash uchun ijobiy xizmat qilgan. Chunki ilgari birgina inspektor yoki rahbarning bir o'zi barcha yumushlarni ya'ni hujjatlarni qabul qilish, tartibga solish, ularga ilmiy-texnik ishlov berish, aholiga va tashkilotlarga ma'lumotnomalar berish singari ishlarini o'zi bajarishiga to'g'ri kelgan. Buning ustiga arxivda xo'jalik ishlarni bajaradigan xodimlar – qorovul, xizmatchi kabilar mavjud bo'lmagan. Bu esa o'z navbatida ishga salbiy ta'sir qilgan. 1938 yildan boshlab bu borada sezilarli ishlar qilingan.

O'zSSR yuqori soveti 1938 yil 14 aprelda “Rayon arxivlari, qishloq sovetlari, kolxozlar, sovxozlardagi arxiv materiallarini tartibga solish va to'g'ri saqlash to'g'risida”gi qarorni qabul qilgan. Ushbu qarorning ijrosini tekshirish maqsadida Viloyat Arxiv Boshqarmasi boshqaruvchisi Axadov 1939 may oyida Buxoro viloyatining qator tumanlariga xizmat safari bilan tashrif buyuradi.

Shu yilning 20 may kunida tekshirishlar natijasi bo'yicha doklad yozgan. Uning dokladida aytilishicha - Shofirkon, G'ijduvon, Kogon, Sverdlov va Buxoro viloyatidagi boshqa qator rayonlar O'zSSR MIKning bir necha martalik ogohlantirishlari va arxiv bo'limi boshqarmasi xodimlarining tashrif buyurishlariga qaramasdan O'zSSR yuqori soveti prizidiumining qarorini bajarmaganlar va shu kunga qadar ham rayon arxivlari tuzilmagan, ularga hech qanday mablag' ajratilmagan[5,8].

Aslida 1938 yil aksariyat rayonlarga arxiv rahbari lavozimiga MAB tomonidan arxiv kurslarini bitirgan kishilar xizmat safari bilan yuborilgan edi. Lekin rayon Ijroqo'mlari ularga hech qanday bino ham, hech qanday mablag' ham ajratmaganlar. Buning oqibatida ular boshqa ishlarga o'tib ketgalar. Bunga misol sifatida G'ijduvon rayoniga yuborilgan – Ashurov, Romitanga yuborilgan – Botirov, Qiziltepa yuborilgan – Azimovlarni aytish mumkin [6,9].

Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxivi manbalarining O'zbekiston tarixini yoritishdagi o'rni beqiyos bo'lib, ayniqsa, bu hujjatlarda Buxoroning XX asr hayotini aks etuvchi qimmatli ma'lumotlar aks etgan.

BVDAning 2019 yil yanvar holatidagi umumiy fondi 781tani tashkil etadi. Hujjatlarning saqlov birligi esa 243.108 tadan iborat. Hozirgi umumiy fondagi boshqaruv hujjatlari 205.813 ta saqlov birligidan iborat. BVDAgi eng katta fond Buxoro viloyati ijroya qo'mitasining 1023 fondidir. Bu fondga saqlanayotgan hujjatlarning tarixiy chegarasi 1938-1991 yillarni o'z ichiga oladi. Bu fond 103.52 ta saqlov birligidan iborat. 1992-2006 yillardagi hujjatlar esa 1459 - fondga saqlanadi. Fondning saqlov birligi 664 tani tashkil etadi.

Viloyat arxividagi yana bir katta fond, bu 532-fond bo'lib, unda Buxoro davlat universiteti tarixini yorituvchi hujjatlar jamlangan. Bu fondagi hujjatlar 744ta saqlov birligidan iborat bo'lib, 1933-1977 yillar tarixini o'zida aks ettirgan[7,25]. 2016 yilda Buxoro davlat Universitetining 85 yillik yubeliyi keng miqyosda nishonlandi. Ushbu tantanalari zamirida BVDA fondlarida saqlanayotgan 532-fond hujjatlarining o'rganilishi bilan bog'liq qator tadqiqotlar mujassamdir[8,56]. Ayniqsa, tadqiqotchilar A.Hamroyev va M.Raxmonovalar tomonidan “Unutilgan tarix”, “Suratlarda BuxDU tarixi”, Bunyodkorlik va ma'rifatga baxshida umr”, “BDU: yuz yillikka qadam”, “BDU tarixi.biobibliografiya” nomli risolalar yaratildi.

Shaxsiy tarkib hujjatlari 36.526ta saqlov birligini tashkil etadi. Shaxsiy kelib chiqish hujjatlari esa 769 ta saqlov birligidan iborat. 2009-2017 yillarda Buxoro idoralararo Shaxsiy tarkib hujjatlari arxivi alohida faoliyat yiritgan bo'lib, bino bilan bogliq muammolar tufayli yana BVDAga qo'shib olingan. Shaxsiy tarkib hujjatlari orasida nafaqat Buxoro, balki, O'rta Osiyo xalqlarining boy turmush tarzi, urf-odat va an'analari, me'morchilik san'ati, etnografiyasi, xududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga oid boy ma'lumotlar saqlanadi[9,224].

Viloyat arxivining eng qimmatli va noyob fondi bu arab alifbosidagi hujjatlar fondidir. Bu hujjatlar ikkita fondan iborat bo'lib, birinchisi, 26-fond. Undagi hujjatlar 1924-1928 yillarga oid bo'lib, 958 ta saqlov birligidan iborat. Ikkinchisi esa, 28-fond bo'lib, 473 ta saqlov birligidan iborat. Bu hujjatlar asosan, 1927-1930 yillarga oid bo'lib, biroq, har ikkala fond hujjatlari ham to'laligicha o'rganilmagan. BVDAgi yana bir qimmatli fond bu foto-fondidir. Bu fondga oid foto tasvirlar maxsus albomlarda yig'ilgan bo'lib, asosan, 1920-2019 yillardagi bir asrlik tarixiy jarayonlarni o'zida aks ettirgan. Fond 10.226 ta saqlov birligidan iborat.

Viloyat davlat arxivi Buxoroning 2500 yillik tantanalari tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish maqsadida 1929 yil noyabr oyida Buxoroda bo'lgan fransuz jurnalisti Andre Violis yozgan xatning asl nusxasini shahar hokimligiga vaqtincha berib turgan. Bu xat sayyohlar uchun tayyorlangan ko'rgazmalarning birida qo'yilgan. Arxivchilar tomonidan turli xil fotoko'rgazmalarning tashkil qilinishi ham e'tiborga loyiq.

Viloyat davlat arxivi materiallari asosida qilingan ilmiy tadqiqot ishlarining eng e'tiborlilaridan biri, 1995 yilda nashr qilingan BuxDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi Ochil Sirojevning “Buxoro fidoiylari” nomli kitobi bo'ldi. Bu kitobda buxorolik II jahon Urushi qatnashchilarining hayoti, faoliyatlari, urushda ko'rsatgan qahramonliklari, urush xotiralari, qo'mondonlik tomonidan taqdirlanganliklari batafsil va aniq yoritilgan. Bundan tashqari Buxoro davlat badiiy-arxitektura muzeyi qo'riqxonasi direktori, tarix fanlari nomzodi R. Almiyev “Buxoro yahudiylari” mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarinin olib borgan. “Gala Osiyo ovozi” gazetasi

tahririyatidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi B.Rajabov ham tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, foydalanilgan materiallar asosida "1924-1930 yillarda Buxoro tumani" nomli kitob tayyorlangan.

4.Xulosalar:

Bugungi kunda BVDA hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish sektori mavjud bo'lib, unda ikki nafar arxiv xodimi faoliyat yuritadi. 1668 ta saqlov birligidan iborat bu sektorda jami 368.977 ta hujjat kadr bo'lgan.

2017 yildan boshlab viloyat arxivida Infokiosk o'rnatilgan bo'lib, unda BVDAning Nizomi, Shaxsiy tarkib hujjatlari to'g'risida, fondlar to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan. Bu esa arxivga tashrif buyuruvchi fuqarolar uchun qulay imkoniyatlar yaratilganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda BVDAning filiallari 12 tani tashkil etadi. BVDA materiallari bugungi kunda Buxoroning XX asr tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2018. B-205. (Mirziyoyev Sh.M. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. -Tashkent: "Uzbekistan", 2018. B-205.)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Islomsivilizatsiyasimarkazi ochilishida so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi. 2017 yil 1 sentabrsoni. (From the speech of Sh.M. Mirziyoyev at the opening of the Center of Islamic Civilization. The word of the people. September 1, 2017 issue.)
3. Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. Buxoro Arxiv ishi tarixi. -Buxoro, 2015. B. 17. (Fayzullayev Sh.N., Klichev O.A. History of Bukhara Archive. -Buxoro, 2015. P. 17.)
4. To'rayev H.H. Bir arxiv tarixi.// Buxoro haqiqati. 1987 yil 4 aprel soni. (To'rayev H.H. An archive history.// The truth of Bukhara. April 4, 1987 issue.)
5. Buxoro VDA, f-15, 1-ro'yxat, 9 ish, 8-varaq. (Bukhara regional state archive, f-15, list 1, 9 works, 8 pages.)
6. Buxoro VDA, f-15, 1-ro'yxat, 9 ish, 9-varaq. (Bukhara regional state archive, f-15, list 1, case 9, sheet 9.)
7. Buxoro VDA, f-532, 1-ro'yxat, 5 ish, 2-varaq. (Bukhara regional state archive, f-532, list 1, case 5, sheet 2.)
8. Hamroyev A., Raxmonova M. Unutilgan tarix. -Buxoro, 2016. B-5. (Hamroyev A., Rakhmonova M. Forgotten history. -Bukhara, 2016. B-5.)
9. Buxoro VDA, f-1235, 1-ro'yxat, 5 ish, 224-varaq. (Bukhara regional state archive, list f-1235.1, 5 cases, 224 pages.)

ЎТМИШГА НАЗАР

3 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 3, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 3, ISSUE 5

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000